



Religious and moral ideas in medieval literature

Askar KURBONOV¹

Karshi State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
15 April 2025
Accepted 25 April 2025
Available online
25 May 2025

Keywords:

Middle Ages,
artistic literature,
religious ideas,
moral values,
divine love,
patience,
justice,
honesty,
repentance,
historical truth,
spiritual heritage.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the development of medieval artistic literature, focusing on its religious and moral concepts. The author examines literary works from the Middle Ages through the lens of spiritual values such as divine love, patience, repentance, justice, and honesty. The study emphasizes the artistic representation of these moral ideas in literary texts. Through the comparative analysis of different cultural heritages, the article explores both common and unique features in the expression of religious and ethical values. This research contributes to a deeper understanding of the spiritual legacy of the Middle Ages and its relevance in the modern value system.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4/S-pp387-391>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'rta asrlar badiiy adabiyotining diniy axloqiy g'oyalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'rta asrlar,
badiiy adabiyot,
diniy g'oyalar,
axloqiy qadriyatlar,
ilohiy muhabbat,
sabr,
adolat,
halollik,
tavba,
tarixiy haqiqat,
ma'naviy meros.

Mazkur maqolada o'rta asrlar badiiy adabiyotining shakllanishi, asosiy yo'nalishlari va diniy-axloqiy g'oyalari keng tahlil etilgan. Muallif o'rta asrlar davridagi adabiy ijod mahsullarini diniy tushunchalar, axloqiy qadriyatlar va tarixiy haqiqatlar bilan uyg'unlikda ko'rib chiqqan. Adabiy matnlarda ilohiy muhabbat, sabr, tavba, adolat, halollik kabi axloqiy tushunchalar badiiy ifoda orqali yoritilgan. Tadqiqot davomida turli xalqlarning badiiy merosi misolida diniy axloqiy g'oyalar ifodalanishining umumiy jihatlari va o'ziga xosliklari o'rganilgan. Maqola o'rta asr adabiyoti orqali diniy-ma'naviy merosni anglash va zamonaviy qadriyatlar bilan bog'lashga xizmat qiladi.

¹ PhD, Teacher, Karshi State University. E-mail: asqarqurbonov079@gmail.com

Религиозно-нравственные идеи средневековой художественной литературы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Средневековье,
художественная
литература,
религиозные идеи,
нравственные ценности,
божественная любовь,
терпение,
справедливость,
честность,
покаяние,
историческая истина,
духовное наследие.

В данной статье всесторонне рассмотрено формирование и развитие художественной литературы Средневековья с акцентом на религиозно-нравственные идеи. Автор анализирует произведения, созданные в эпоху Средних веков, через призму духовных ценностей, таких как божественная любовь, терпение, покаяние, справедливость и честность. Особое внимание уделяется тому, как эти понятия художественно отражаются в литературных текстах. В статье исследуются как общие черты, так и национальные особенности отражения религиозно-нравственных идей в литературном наследии различных народов. Работа способствует более глубокому пониманию духовного наследия Средневековья и его значимости в современном культурном контексте.

KIRISH

Voqelikning o'zgarishi hamisha uning in'ikosining ham o'zgarishiga sabab bo'ladi – bu umumma'lum bo'lgan aksiomatik fikr. Uni badiiy adabiyot rivojlanishi jarayoniga nisbatan ham qo'llash mumkin. Badiiy adabiyot, voqelikning badiiy timsollardagi in'ikosidir. Binobarin, ijtimoiy voqelik takomil topgani sayin uning in'ikosi bo'lmish badiiy adabiyot ham o'zgara bordi. Shu boisdan badiiy adabiyot taraqqiyotini insoniyat sivilizatsiyasining bosqichlariga mutanosib tarzda davrlashtirish odat bo'lgan. Bu o'rinda, masalan, qadimgi dunyo badiiy adabiyoti, o'rta asrlar badiiy adabiyoti, uyg'onish davri badiiy adabiyoti, yangi zamon badiiy adabiyoti, hozirgi zamon (yoxud zamonaviy) badiiy adabiyoti haqida mulohaza yuritish mumkin [1].

MATERIAL VA METODLAR

Badiiy adabiyotning barcha tarixiy tiplari o'z xususiyatlariga ega bo'lgan. Masalan, tadqiqotchi Y.Chaykin qadimgi rus adabiyoti quyidagi xususiyatlarga ega bo'lganini ta'kidlaydi:

- matn mazmunining tarixiyligi;
- sinkretiklik;
- volyuntativlik va didaktiklik;
- matn shaklining etiketiligi;
- anonimlik;
- bayonning qo'lyozma xarakteriga egaligi.

Mufasssal tahlil barcha qadimgi dunyo xalqlarining badiiy adabiyoti shunday xususiyatlarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Jumladan, ushbu davrda umrguzaronlik qilgan hamma xalqlarning badiiy adabiyotida tarixiy voqealar badiiy timsollarda o'zlashtiriladi hamda bayon etiladi. Ularda real insonlar va voqealar xayoliy, fantastik obrazlar bilan qorishtirib yuboriladi. Turli voqealar va jarayonlar tasvirlanar ekan, inson muayyan hatti-harakatlarga undaladi, unga nasihatlar qilinadi, maqbul xulq-atvor normalari targ'ib qilinadi. Qadimgi dunyo badiiy adabiyotining barcha yozma manbalari qo'lyozma xarakteriga ega bo'lib, ularning muallifini aniqlash ham imkonsiz [2].

O'rta asrlarda badiiy adabiyot teotsentrik xarakter kasb qildi. Bu davrda diniy g'oyalarga asoslangan badiiy asarlar yaratish tendensiyaviy tus oldi. G'arbda uning rivojiga "uch omil – xalq ijodi, antik san'at va xristian dini ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Bunda, ayniqsa xalq poeziyasi traditsiyalarining ijobiy roli kattadir". Sharqda esa ijodkorlar "ijodida g'azalchilik asosiy o'rin egallaydi. Ruboiy va tuyuq singari kichik janrlarning ham katta mavqe tuta boshlagani shu davrdan boshlanadi. O'zbek dostonchiligi ham yangi an'analar bilan boyidi. Qasida, soqiynoma, masnaviy kabi janrlar ham rivojlanish yo'liga kirgan edi. Bu davr adabiyotida Qur'on ohanglari ko'proq ko'zga tashlanadi" [3].

O'rta asrlar badiiy adabiyoti ko'pincha diniy axloq g'oyalarini o'zida mujassam etar, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashni, qahramonlarning ruhiy ichki ziddiyatlarini ifodalari edi. Bu davr badiiy adabiyotining yana bir muhim jihati shundaki, u ko'pincha og'zaki tarzda etkazishga va bilimlarni avlodlardan avlodga translyasiya qilishga mo'ljallangan bo'lib, bu uning tuzilishi va uslubiga ham ta'sir ko'rsatgan. O'rta asrlar adabiyotining eng mashhur janrlaridan biri - risarlik romanlari, balladalar, afsonalar va ertaklardan iborat bo'lgani ham shundan.

Uyg'onish davri zamona paradigmasini, butun madaniyatini o'zgartirgani kabi badiiy adabiyotga ham yangicha mazmun baxsh qildi. U turfa gumanistik g'oyalar evaziga boyidi. "Gumanistlar antik manbalardan tenglik va adolat uchun kurash g'oyalarini oladilar. Antik adabiyotning bunday xususiyatlaridan ta'sirlanish F.Rable "Gargantuya va Pantagryul", Servantes "Don Ki-xot", Shekspir va Marloning tragediyalarida yaqqol gavdalanadi"[4]. Ko'rsatilgan davrda Sharq badiiy adabiyoti ham insonparvarlik g'oyalari targ'ibotchisiga aylandi. "Adabiyot badiiy uslub jixatidan takomillashdi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ilmiy asarlar yaratildi. O'zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi. Bu davrda yetuk ijodkorlar Qutb, Sayfi Saroyi, Xaydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur va boshqalar yashab ijod qildi. Ayniqsa o'zbek yozma adabiyotining dunyoviy ko'lamini Alisher Navoiyning ijodi kamolot bosqichiga ko'tardi". Badiiy asarlardan nusxa ko'chirish, matnlarga zeb berish, ularni yagona kutubxonada jamlash amaliyoti ham aynan shu davrda jadal rivoj topa boshladi [5].

Insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilganlik – Uyg'onish davri badiiy adabiyotining yagona xususiyati emas. Bundan tashqari, bu davr ijodkorlari o'z asarlarida uyg'unlik va muvozanatni tasvirlashga intildilar. Uyg'onish davrida adabiyot tobora o'rta asr tasavvurlari va afsonalaridan uzoqlashdi, uning o'rniga yangi badiiy obrazlar va mavzularni kashf qildi. Nihoyat, Uyg'onish davri badiiy adabiyoti fikr va g'oyalarning erkin ifodalanishi bilan xarakterlandi.

Yangi ijtimoiy munosabatlarga yo'l ochgan Yangi zamon badiiy adabiyotda qudratli adabiy oqimlarning vujudga kelishi va rivojlanishi davri bo'ldi. Bu davrda avvalo klassitsizm adabiy oqimi rivoj topdi. O'n yettinchi asrda shakllangan mazkur oqimning asosiy maqsadi shaxsni axloqan kamol toptirishga qaratilgan edi. Biroq uning vakillari yuksak axloqiy tuyg'ularni, barkamol inson fazilatlarini ulug'lar ekanlar, asta-sekinlik bilan real voqelikdan ham yiroqlasha bordilar. Shu boisdan XVIII asrning oxirlariga kelib, unga muqobil sifatida avval sentimentalizm, so'ngra esa romantizm adabiy oqimlari vujudga keldi va rivojlandi. Sentimentalizm tarafdorlari his-tuyg'ularni insoniylik dominantasi deb bilsalar, romantizm vakillari eng yuksak ehtiros va kuchli xarakterlar bayoniga urg'u berardilar. G'oyaviy ziddiyatlarga qaramasdan, har uchala adabiy oqim vakillari insoniyat ma'naviy merosini ko'plab betakror asarlar bilan boyitishga muvaffaq

bo'ldilar. Klassitsizm vakili fransuz yozuvchisi Molyer komediyalari, sentimentalizm vakili nemis yozuvchisi I.V. Gyote romanlari, romantizm vakili A. Dyuma asarlari shundan dalolat beradi [6].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jamiyat hayotining barcha sohalarida, ma'naviy madaniyatning barcha qismlarida bo'lgani kabi badiiy adabiyot olamida fundamental o'zgarishlar yuz bera boshladi. Ilmiy manbalarda aynan shu davrdagi badiiy adabiyot "zamonaviy badiiy adabiyot" tushunchasi yordamida ifodalanadi. Bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar, ijodkorlar ijtimoiy maqomi va kishilarning badiiy adabiyotga munosabatidagi o'zgarishlar, bir tomondan, badiiy adabiyotga yangi xususiyatlar baxsh etdi. Ikkinchi tomondan esa, badiiy adabiyotning rivojida avvalgi davrlarda mavjud bo'lmagan yangi tendensiyalarni vujudga keltirdi.

Turli omillar ta'sirida zamonaviy *badiiy adabiyotda qator o'ziga xos xususiyatlar* gavdalandi. *Birinchidan*, bugungi badiiy adabiyot olami turli janrlarning modifikatsiyalashayotgani bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, asrlar davomida shakllanib kelgan epos, lirika va drama janrlarining yangi ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Masalan, roman – o'rta asrlardan buyon badiiy adabiyotning eng keng tarqalgan janrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda uning realistik roman, tarixiy roman, epistolyar roman, fantastik roman, detektiv roman, avtobiografik roman kabi o'nlab klassik janrlari shakllanib ulgurdi. So'nggi yarim asr davomida esa uning mutlaqo noodatiy modifikatsiyalari vujudga keldi. Xususan, 1995-yilda Bolgariyada nashr qilingan yozuvchi E. Dvoryanovanning "Passion yoxud Alisaning o'limi" nomli roman-fugasida adabiyot va musiqaning bayon uslublari sintez qilinadi [7]. Boshqa bir bolgar yozuvchisi O. Stoyanovanning "Shaxsiy geografiyalar" nomli asari romanpazl nomini oldi: uning syujeti turli voqealarga xos epizodlar yig'indisidan tarkib topadi. Shuningdek, romanning roman-latifa, roman-kino kabi o'nlab ko'rinishlari vujudga keldi.

XULOSA

Mohiyatan boy mazmunga va turfa sifatlarga ega o'ra asrlar badiiy adabiyot tarixiy, gnoseologik, mantiqiy, aksiologik, prognostik, estetik va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. Zamonaviy badiiy adabiyotning asosiy xususiyatlari turli janrlarning modifikatsiyalashayotgani, turli janrlarga xos xususiyatlarni o'zida uyg'unlashtirgan, real kishilar va jarayonlarning mualliflik talqinlarini mujassamlashtirgan, fragmentar syujetga ega asarlarning ko'payayotgani bilan tavsiflanadi. Zamonaviy badiiy adabiyot rivojining asosiy tendensiyalari badiiy asarlar yaratish texnologiyasi takomillashuvi, badiiy adabiyotga bozor iqtisodiyoti ta'sirining intensivlashuvi, ommaviy badiiy adabiyot rivoji, badiiy adabiyotning raqamlashuvi bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Чайкин Ю. Особенности древнерусской литературы. // proza.ru/2014/11/03/1872.
2. Қажумов О. Чет эл адабиёти тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи, 1973. - Б. 5.
3. Карабаева Д. Ўзбек адабиёти тарихи. - Тошкент: ЎзДСМИ, 2017. - Б. 30.
4. Уйғониш даври адабиёти. // www.e-adabiyot.uz/maqola/182.
5. Шарқ Уйғониш даври маданияти. // elib.buxdu.uz.

6. Карцева З. И. По законам контрапункта (о структуре одного “музыкального” романа). Преемственность как фактор литературного процесса. // Опыт Центральной и Юго-Восточной Европы, 2017, №1. – С. 231-240.

7. Карцева З. И. Мифологема бегства как модель мироустройства в новой болгарской прозе. // Вестник Московского университета. Серия “Филология”, 2010, - №4. – С. 66-74.